



O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISH USULLARI.

Andijon davlat chet tillari instituti

Roman-german va Slavyan tillari fakulteti

Kompyuter lingvistikasi 25-01 guruh talabasi:

Sotvoldiyeva Fotima Azizbek qizi

Ilmiy maslahatchi: Xolisova G.M.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilida so‘z yasalishning asosiy usullarini aniqlash va ularning funksional imkoniyatlarini ochib berishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda morfologik va leksik-semantik usullar orqali hosil bo‘lgan so‘zlar tahlil qilinib, ularning nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalish usullari , affiksatsiya , kompozitsiya, takrorlash usuli , semantic , konversiya*

Abstract: This article is devoted to identifying the main methods of word formation in the Uzbek language and revealing their functional capabilities. The study analyzes words formed through morphological and lexical-semantic methods and shows the features of their use in speech.

Keywords: *word formation methods, affixation, composition, repetition method, semantic, conversion.*

Аннотация: Данная статья посвящена выявлению основных методов словообразования в узбекском языке и раскрытию их функциональных возможностей. В исследовании анализируются слова, образованные морфологическими и лексико-семантическими методами, и показаны особенности их использования в речи.



Ключевые слова: *методы словообразования, аффиксатив, композиция, метод повторения, семантический, конверсия.*

Kirish. Tilning lug'aviy boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi va bu jarayonda so'z yasalishi muhim o'rin tutadi. So'z yasalishi til tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, yangi leksik birliklarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. O'zbek tilida so'z yasalish usullarini o'rganish tilning ichki qonuniyatlarini anglash, uning taraqqiyot bosqichlarini belgilash hamda zamonaviy nutqdagi o'zgarishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

So'z yasash yangi ma'noli so'z hosil qilish demakdir. So'z yasalishi lug'aviy ma'noning o'zgarishi asosida vujudga kelib, yasama so'z ko'pincha bir turkumdan boshqa turkumga ko'chadi. Shu ma'noda so'z yasash hodisasi so'zning grammatik jihatidan o'zgartiradigan hodisadir ¹.

So'z yasalishi masalasi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan qiziqib kelingan va o'rganilgan. Xususan, A. G'ulomovning so'z yasalishi haqida o'z ilmiy izlanishlari va tadqiqotlariga tayanib „So'z yasalishi” tilshunoslikning alohida hodisa va bo'lim sifatida ilk bor XX asrning 40- yillarida shakllangandi. Olim o'zining ilmiy kitoblarida so'z yasalishi bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tgan. Muallifning 1949- yilda nashr qilingan „O'zbek tilida so'z yasalishi yo'llari haqida” nomli maqolasida bu muommoga doir bir qator masalalar o'sha davrdagi tilshunoslik nazariyalari qo'lga kiritgan yutuqlari asosida ilmiy yechimini topdi ².

Yasalgan so'z esa ma'noviy ixtisoslashgan, leksemalanishning birinchi bosqichida yuz tutgan va til jamiyati a'zolari xotirasida “qotib qolgan”, shu shaklga

¹ <https://pedagogs.uz/01/article/download/29/28/53>

² <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/download/15921/11063/13442>



bogʻlangan maʼnoga ega boʻladi. Chunonchi, suvchi – mirob, qishloq xoʻjaligida sugʻorish ishlari bilan band mutaxassis shaxs³. Soʻz yasash maʼlum bir lugʻaviy birlikdan soʻz yasovchi vosita yordamida yangi soʻz hosil qilish tushuniladi.

Oʻzbek tilimizda soʻz yasalishining affiksatsiya va kompozitsiya usullari yetakchilik qiladi. Affiksatsiya - tilimizda grammatik maʼno ifodalashning eng keng tarqalgan turi boʻlib, u orqali deyarli aksariyat grammatik maʼnolar ifodalanadi⁴. Ifodalaydigan grammatik maʼnoning xarakteriga va oʻz mohiyatlariga koʻra affikslar ikkiga boʻlinadi: soʻz yasovchi affikslar va shakl yasovchi affikslar⁵. Soʻz yasovchi affikslar soʻzga qoʻshilib, yangi lugʻaviy maʼno hosil qiladi va soʻzning grammatik tabiatiga ham taʼsir etadi⁶. Masalan, ish soʻziga qoʻshilgan –la soʻz yasovchi qoʻshimchasi yangicha lugʻaviy maʼno vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik maʼno ham hosil qiladi⁷. Ular vazifasiga koʻra 3 guruhga boʻlinadi: soʻz yasovchi, lugʻaviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi.

Sintaktik usul (kompozitsiya usuli) – bunda soʻz asoslarini oʻzaro birlashtirish orqali yangi soʻzlar yasaladi. Bunday soʻzlarni qoʻshma soʻzlar deb ataymiz. Qoʻshma soʻzlar ikki va undan ortiq asos morfemalarning birlashishi va bir urgʻu bilan aytilishidan yasaladi. Qoʻshma soʻzlar mustaqil soʻz turkumlarining barchasida mavjud. Qaysi mustaqil soʻz turkumlarida morfologik usulda soʻz yasalish mavjud boʻlsa, shu turkumlardagi qoʻshma soʻzlar ham yasama soʻz

³ Raʼno Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.138

⁴ Gʻulomov, A., Asqarova, M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1987.

⁵ Nurmonov, A., Mahmudov, N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — Toshkent: Ilm Ziyoyi, 2010.

⁶ Abdurahmonov, Gʻ. Oʻzbek tili grammatikasi. — Toshkent: Fan, 1996.

⁷ B.Mengliyev, R. Sayfullayeva, G. Boqiyeva va boshqalar. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – B.158



sanaladi. Demak, ot, sifat, fe'l, ravish turkumlaridagi qo'shma so'zlarni yasama so'z deyishga haqlimiz⁸.

Takrorlash usuli orqali takrorlanib yangi so'zlar yasaladi: yo'l-yo'l (rang), es-es (zo'rg'a), ona-bola (o'yin), paqpaq (o'yin), tur-tur (turish), bip-bip (avtobus), patpat (mototsikl), xola-xola (o'yin), manman . Takroriy so'zlarning hammasi ham yasama emas. Chunki ayrim so'zlar ma'no kuchaytirish uchun ishlatiladi . Bunda ham yangi ma'no yasalsagina, yasama so'z hisoblanadi: katta-katta, tez-tez, zich-zich, baland-baland kabi takroriy so'zlar yasama emas .

Semantik usul orqali so'z tashqi shaklini saqlagan holda yangi ma'no kasb etadi⁹. Bu usul o'zbek tilining lug'aviy boyishini ta'minlovchi muhim so'z yasash vositalaridan biridir. Misol uchun, bosh (tana a'zosi) - bosh (rahbar), ko'z (ko'rish a'zosi) - ko'z (buloq boshi), til (nutq a'zosi) - til (aloqa vositasi), oyoq (tana a'zosi) - oyoq (tayanch qismi), yurak (tana a'zosi) - yurak (jasorat, botirlik), qo'l (tana a'zosi) - qo'l (yordam, ko'mak), og'iz (tana a'zosi) - og'iz (idish og'zi, kirish qismi), quloq (eshitish a'zosi) - quloq (don boshqoq qismi), bel (tana a'zosi) - bel (tog' etagi). Bu holat ko'p ma'nolilik (polisemiya) hodisasi bilan bog'liq bo'lib, so'z ma'nosining ko'chishi natijasida yuzaga keladi¹⁰.

Konversiya — tilshunoslikda so'z turkumining tashqi o'zgarishsiz, ya'ni qo'shimchalarsiz yoki morfemalarni o'zgartirmasdan, bir so'z turkumidan

⁸ <https://refocus.uz/index.php/1/article/download/1404/1129/2182>.

⁹ Hojiyev, A. O'zbek tili leksikologiyasi. — Toshkent: 1981

¹⁰ Mirtojiev, M. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 1992.



boshqasiga o'tishi jarayoni sifatida tushuniladi¹¹. Bu jarayon natijasida so'zning shakli o'zgaradi, lekin uning grammatik funksiyasi va til ichidagi roli o'zgaradi¹².

O'zbek tilida konversiya orqali sifat, ot, fe'l va boshqa turkumlar o'rtasida yasaliş kuzatiladi. Bu jarayon tilning lug'aviy boyligi va ifodaviy imkoniyatini kengaytiradi hamda so'zlarning ko'p ma'nolilik xususiyatini oshiradi¹³.

Mazkur maqolada o'rganilgan ilmiy-nazariy materiallar va tahliliy yondashuvlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tadqiq etilayotgan masala zamonaviy fan rivoji nuqtayi nazaridan muhim va dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy konsepsiyalar, mualliflar qarashlari hamda amaliy misollar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligi aniqlashtirildi. Bu holat o'rganilayotgan masalaning murakkab va ko'p bosqichli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Maqolada keltirilgan dalillar va ilmiy umumlashtirishlar asosida masalaning nazariy asoslari yanada mustahkamlandi. Tadqiqot natijalari mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlar bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega ekanini, shuningdek, ularni yagona tizim sifatida o'rganish zarurligini tasdiqlaydi. Olingan ilmiy xulosalar masalaning mohiyatini chuqurroq anglashga va uni ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi. Avvalo, mazkur yo'nalishda olib boriladigan kelgusidagi tadqiqotlarda zamonaviy metodologik yondashuvlar va innovatsion tahlil usullaridan kengroq foydalanish lozim. Bu ilmiy natijalarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

¹¹ Shukurov, Sh. O'zbek tilida so'z yasaliş masalalari. — Toshkent: Fan, 1991.

¹² O'zbek tili grammatikasi. I jild (Morfologiya). — Toshkent: 1975.

¹³ Hojiyev, O. (2015). O'zbek tilshunosligi asoslari. Toshkent: Fan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://pedagogs.uz/01/article/download/29/28/53>
2. <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/download/15921/11063/13442>
3. Ra'no Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.138
4. G'ulomov, A., Asqarova, M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'qituvchi, 1987.
5. Nurmonov, A., Mahmudov, N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2010.
6. Abdurahmonov, G'. O'zbek tili grammatikasi. — Toshkent: Fan, 1996.
7. B.Mengliyev, R. Sayfullayeva, G. Boqiyeva va boshqalar. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – B.158
8. <https://refocus.uz/index.php/1/article/download/1404/1129/2182>.
9. Hojiyev, O. (2015). O'zbek tilshunosligi asoslari. Toshkent: Fan.
10. Mirtojiev, M. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 1992.
11. Shukurov, Sh. O'zbek tilida so'z yasalishi masalalari. — Toshkent: Fan, 1991.
12. O'zbek tili grammatikasi. I jild (Morfologiya). — Toshkent: Fan, 1975.
13. Hojiyev, O. (2015). O'zbek tilshunosligi asoslari. Toshkent: Fan.